

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 247 (1308), 2024-yil 5-dekabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



TINCH ATOM SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HAMKORLIK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bosh direktori Rafael Grossi o‘rtasida 4-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni tubdan kengaytirish va amaliy sheriklikning yangi yo‘nalishlarini ilgari surish istiqbollari atroflicha ko‘rib chiqildi.



O‘zbekiston 1994-yildan buyon XAEA a‘zosi. Bu davr mobaynida ushbu nufuzli tashkilotning texnik ko‘magini jalb etgan holda 40 dan ortiq qo‘shma loyiha amalga oshirildi. Hozirda milliy tuzilmalarning huquqiy bazasi va salohiyatini takomillashtirish, yadro fani, tibbiyotini rivojlantirish bo‘yicha va boshqa yo‘nalishlarda 5 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari XAEA delegatsiyasi bugun O‘zbekiston vazirliklari, idoralari va ilmiy muassasalarida o‘tkazgan uchrashuv va tadbirlarning natijalarini yuqori baholadi. Samarqand shahrida sohadagi yetakchi xorijiy ekspertlar ishtirokida bo‘lib o‘tadigan Atom energiyasidan foydalanish masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiya birgalikda tashkil etilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Milliy agentliklarning kompetensiyalari va salohiyatini oshirish, XAEA dasturlari doirasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, yadro energetikasi, qishloq xo‘jaligi, suvdan foydalanish, sog‘liqni saqlash, ekologiya sohalarida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Uchrashuv yakunida tinch atom sohasini rivojlantirish borasida ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish yuzasidan qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

O‘ZA

“ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTIGA A‘ZO DAVLATLARNING BARQAROR RIVOJLANISHI UCHUN ATOM ENERGIYASIDAN TINCHLIK MAQSADLARIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO VA MILLIY Tajriba” MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Xonimlar va janoblar!

Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va uni rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan xalqaro anjumanning barcha qatnashchilarini chin qalbimdan samimiy muborakkob etaman.

Mana shunday muhim va nufuzli forumni mamlakatimizda o‘tkazish tashabbusini faol qo‘llab-quvvatlagani va shaxsan ishtiroki uchun Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik bosh direktori Rafael Grossi janoblariga alohida minnatdorlik izhor etaman.

Mazkur anjumanning azaldan Sharq va G‘arbi bo‘g‘lab kelgan, bugungi kunda xalqaro hamkorlik borasidagi eng dolzarb masalalar bo‘yicha global miqyosda samarali muloqot markaziga aylanib borayotgan qadimiy Samarqand shahrida o‘tkazilayotgani bizga alohida mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta‘siri va an‘anaviy energiya manbalari taqchilligi yaqqol sezilayotgan hozirgi sharoitda tinch

atom hayot sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirishda muhim muqobil yechim hisoblanadi.

Shu ma‘noda, o‘tgan yili Dubay shahrida o‘tkazilgan COP28 Iqlim sammitida ko‘plab mamlakatlar yetakchilarining atrof-muhitga uglevodorod energetikasi manbalari salbiy ta‘sirini keskin kamaytirish maqsadida 2050-yilga qadar atom elektr energetikasi quvvatlarini uch barobarga oshirish bo‘yicha erishgan muhim kelishuvlari bejiz emas albatta. Mamlakatimizni ishonchli, xavfsiz, iqtisodiy samarador va ekologik toza energiya manbalari bilan ta‘minlash — Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida yetakchi o‘rin egallab kelmoqda.

Biz sohaning huquqiy-institutsional asosini mustahkamlash uchun Milliy agentlik tashkil etdik, Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish haqidagi qonun, Atom energiyasini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli konsepsiya, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan strategiyani qabul qildik. Soha uchun yuqori

malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini joriy etdik.

Yurtimiz jahonda birinchilardan bo‘lib, xalqaro talab va standartlarga muvofiq, kichik quvvatli atom elektr stansiyalarini barpo etishga kirishdi. Biz ushbu loyihalarni, bundan tashqari, sog‘liqni saqlash va qator ilmiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda MAGATEni o‘zimiz uchun muhim sherik deb bilamiz.

Hech shubhasiz, atom energiyasi bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz taraqqiyotiga kuchli turki beradi hamda yangi ilmiy-texnologik ishlamlar va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish uchun imkon yaratadi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Ushbu anjuman sohada to‘plangan boy bilim va tajribalarni o‘zaro almashish, keng qamrovli hamkorlik o‘rnatish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda tinch atomdan samarali foydalanish bo‘yicha aniq tavsifi va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun g‘oyat zarur muloqot maydoni bo‘lib xizmat qilishini alohida ta‘kidlamoqchiman.

Konferensiya kun tartibiga sohadagi faoliyatni MAGATE bilan muvofiqlashtirgan holda AESlar barpo etish, ularning xavfsizligini ta‘minlash, yadro texnologiyalarini rivojlantirishning ekologik jihatlarini kabi o‘ta dolzarb masalalar kiritilgan. Shuningdek, innovatsiyalar, yadroviy tibbiyot, sohada ta‘limni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga ham alohida e‘tibor qaratiladi deb ishonaman.

Aminmanki, anjuman davomida muhokama qilnadigan barcha g‘oya va tashabbuslar ushbu muhim tarmoqda o‘zaro muloqotni va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, energetik xavfsizlikni mustahkamlash, davlatlarning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston barcha xorijiy hamkorlar bilan ushbu ustuvor yo‘nalishda yaqin hamkorlik qilishga doim tayyordir.

Barchangizga sihat-salomatlik, olijanob faoliyatingizda ulkan yutuqlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘ZA

VILOYAT SALOHİYATI TO‘LA ISHGA SOLINSA, NATIJADORLIK BO‘LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-dekabr kuni Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, investitsiyalarni ko‘paytirish, kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, turizm kabi barcha yetakchi sohalar bo‘yicha Qashqadaryoning salohiyati yuqori. Yil boshidan buyon viloyatda 2 milliard dollar investitsiya o‘zlashtirilgan. 565 ming nafar aholining bandligi ta‘minlanib, 90 ming odam kambag‘allikdan chiqarilgan. Yil yakunigacha yalpi hududiy mahsulot 6 foizdan ziyod o‘shishi, eksport 555 million dollarga yetishi kutilmoqda.

Viloyat salohiyati to‘la ishga solinsa, natijalar bundan ancha ko‘p bo‘ladi. Yig‘ilishda shu boradagi qo‘shimcha imkoniyatlar, yangi loyihalar ko‘rib chiqildi.

Avvalo, oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ustuvor bo‘ladi. Keyingi yildan Qashqadaryo kartoshka, meva, parranda go‘shti va tuxum bo‘yicha o‘zini o‘zi to‘liq ta‘minlashga o‘tadi. Bu borada xorijiy investorlar ishtirokida 16 ta yirik loyiha shakllantirilgan.

Misol uchun, G‘uzor, Qamashi, Shahrisabz tumanlarida 300 gektarda zamonaviy bog‘ barpo etiladi. Unda yiliga qo‘shimcha 4 ming tonna meva yetishtirilib, 600 ta ish o‘rni yaratiladi. Ko‘kdala, Chiroqchi, Shahrisabz, Koson va Nishon tumanlari hududida qovun va organik sabzavotlar yetishtirish kengaytiriladi. Tarruv konsentratni tayyorlash, shok usulida muzlatish va sublimatsion quritish yo‘lga qo‘yiladi.

Viloyatda chorvachilikni rivojlantirishga alohida urg‘u beriladi. Mintaqa va Yevropa davlatlaridan 62 ming bosh qo‘y, qariyb 10 ming bosh qoramol olib kelinib, aholi va chorvachilik xo‘jaliklari bilan kooperatsiya asosida boqiladi. Qarshi va Qamashida 1 ming boshli chorvachilik klasteri, 1 million boshli parrandachilik fabrikasi tashkil etiladi. Paxtachilikda tayyor mahsulotlar ulushini ko‘paytirish maqsadida 233 million dollarlik 5 ta to‘qimachilik korxonasi ishga

tushiriladi. Natijada mato ishlab chiqarish quvvati 51 foizga ko‘tariladi.

Shahrisabzdagi Miraki va Qamashidagi Maydanak qishloqlari, Mirishkor tumanidagi “Achinko‘l” va “Sechanko‘l” atrofida turizm jadal rivojlanmoqda. Shu kabi maskanlarga 300 million dollar investitsiya kiritib, 200 dan ziyod mehmon uylari va mingta savdo shoxobchasi tashkil etish rejalashtirilgan. Ularda 5 ming kishi ishli bo‘ladi.

Tadbirkorlar viloyatdagi 147 ta noruda qazilma konlari negizida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni taklif qilayapti. Bunga 209 million dollar investitsiya kiritiladi, konlar bosqichma-bosqich auktsionga chiqariladi.

Prezident farmoniga muvofiq, shu yil 1-noyabrdan yurtimizda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi boshlandi. Qashqadaryodagi 6 ta yirik korxona bu xayrii ishga hissa qo‘shib, keyingi yil 10 mingdan ziyod fuqaroni kambag‘allikdan chiqarish tashabbusini bildirgan. Bundan tashqari, banklar ishtirokida 86 ta drayver loyihani va 33 mingta mikroloiyhani ishga tushirib, yana 70 ming insonni daromadli qilish ko‘zda tutilgan. Natijada viloyatda kambag‘allik darajasi hozirgi 8,6 foizdan 6,5 foizga pasayadi.

Yig‘ilishda Qashqadaryo viloyati hokimi shu kabi rejalarini taqdimot qildi. Jumladan, kelgusi yilda 3 milliard 500 million dollar investitsiya jalb qilish, eksportni 1 milliard dollarga yetkazish, 300 ming ish o‘rni yaratish mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbari bugungi ko‘rsatkichlar viloyat imkoniyatlariga mos emasligini ta‘kidlab, natijadorlikni oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Tashabbuskorlar bilan ishlab, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasida yana 300 million dollarlik loyihalarni ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

O‘ZBEKISTON – HUQUQIY DAVLAT

Konstitutsiyamizda belgilangan besh asosiy tamoyil – SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIIY va DUNYOVIY davlat maqsadlarining uchinchi tahlili

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!” degan ezgu g‘oyani o‘zida mujassam etgan islohotlar yangi davrni boshlab bergan edi. Ana shunday o‘zgarishlar davrida qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal etilishi tabiiy. Chunki xalqni rozi qilish, mamlakat farovonligiga erishish orqali yangi O‘zbekistonnii barpo etish, Uchinchi Rennessansning mustahkam poydevorini qo‘yishni maqsad qilganmiz. Buning uchun esa bir butun xalq, yagona vatan bo‘lib harakatdagi katta kuchga aylanib borayotganimiz ham rost.

Ko‘zlangan maqsadlarga esa faqatgina huquqiy davlat tamoyiliga asoslanibgina erishish mumkin. Masalan, O‘zbekistonda barcha mulk shakllari tengdir va huquqiy tomondan himoya qilinadi. Bu orqali mulk daxlsizligi to‘la ta‘minlandi. Tadbirkorlik, umuman, barcha sohani rivojlantirishda mulk daxlsizligi juda muhim. Ko‘p hollarda hal qiluvchi kuchga ega. Shu bois, mulkdor o‘z mol-mulkidan sud qarorisiz hamda qonunga zid tarzda mahrum qilinishi mumkin emasligi taraqqiyot yo‘limizdagi mash‘aladir.

Yana bir jihat, inson huquqlarining kafolati bilan bog‘liq. Shaxsning aybsizlik

prezumpsiyasi yanada mustahkamlandi. Hatto qonunda nazarda tutilgan hollarda, yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladigan bo‘ldi.

Lo‘nda qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlari shiddatli islohotlarimizga munosib tarzda kafolatlangan. Shu ma‘noda, xitoy faylasufi Shan Yanning “Yaxshi qonun — xalqqa hurmat ifodasidir”, degan so‘zlariga dalil qilib, hech shubhasiz, yangi O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini ko‘rsatish mumkin.

TAHRIIRIYAT



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.



KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR XALQ FAROVONLIGINI TA’MINLASH KAFOLATIDIR

Yangi O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar qisqa muddatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida samara bermoqda. Sababi mazkur islohotlar maqsadi “inson – jamiyat – davlat” o‘rtasidagi xalq hokimiyatchiligi munosabatlariga asoslangan. Zero, xalqning o‘zi mazkur Konstitutsiyaviy islohotlarning bosh tashabbuskori bo‘ldi.

Konstitutsiyamiz muqaddimasida uning falsafasi, yuridik tabiati, mafkurasi va asosiy maqsadi mustahkamlangan. Asosiy qonunning muqaddimasi bilan tanishgan kishi xalqimizning xohish-irodasi, maqsad-muddaosi va orzu-umidlari hamda qadriyatlarini anglab yetadi.

Bosh qonunimizning dastlabki moddasini uning yadrosi, asosiy maqsadi, deb bilaman. Chunki unda “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat...” ekanini mustahkamlagan. Mazkur konstitutsiyaviy norma mazmun-mohiyatiga ko‘ra yangi sanaladi.

Mantiqan qaraganda, mamlakatning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat darajasiga erishuvi siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur konstitutsiyaviy normaning ahamiyati bevosita “inson qadri” tom ma’noda yuksalishi bilan bog‘liq.

Shu o‘rinda birgina huquqiy davlat masalasiga doir konstitutsiyaviy islohotlarga to‘xtalmoqchiman. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi ekanini mustahkamladi. Xususan, inson huquqlariga oid normalar 3 barobar oshirildi. Davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolar manfaatini ko‘zlab faloyiat yuritishiga asos yaratildi. Binobarin, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘lishi shart va zarurligi belgilandi. Bunga ko‘ra, davlat va inson o‘rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olindi.

Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llanadigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerakligi mustahkamlandi. Qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga o‘z roziligisiz yuklatilishi mumkin emasligi qayd etildi. Ushbu norma odamlar hayotini yanada yengillashtirdi.

Inson huquq va erkinliklari kafolati sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlandi. Bundan tashqari, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilandi. Ya’ni shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi shart.

Ilk bor shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerak. Ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi.

Har kimning yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron xabarlari hamda boshqa xabarlari sir saqlanish huquqiga ega ekanini belgilandi. Bunday huquqlar cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv o‘tkazilishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi belgilab qo‘yildi.

Shaxsning sudlangani va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi mustahkamlandi. Tabiiyki, bularning



Akbar TOSHQULOV, adliya vaziri

hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo‘ydi.

Har bir shaxsning respublika hududida erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash, respublikadan tashqariga chiqish hamda O‘zbekiston fuqarolarining O‘zbekistonga moneliksiz qaytish huquqi belgilandi. Mazkur konstitutsiyaviy qoida kiritilishi bilan erkin harakatlanish qadriyat darajasida oliy huquqiy norma sifatida mustahkamlandi. Bu “propiska” tizimi muammosiga ham barham berdi.

Bugun barcha masala yechimi chinakam xalq ovozi bo‘lgan mahalla darajasiga tushirilmogda. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi mustahkamlandi. Konstitutsiyamizda mazkur

Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O‘zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasidan.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

kafolat belgilanishi mahallalarga o‘z hududini mustaqil boshqarish, aholi manfaatidan kelib chiqib, davlat bilan sheriklik asosida muammolari hal etib borish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, aholi farovonligini ta’minlashda muhim imkoniyatlarni taqdim etmogda. Mazkur demokratik konstitutsiyaviy islohotlar yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya real hayotda amalga oshayotganini yana bir bor ko‘rsatmogda.

Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar

bilan amaliy ishlar bajarildi. Sa’y-harakatlar davomida 2700 ga yaqin huquqiy muammo aniqlanib, 2 mingdan ortig‘i ijobiy hal etildi. Endi “Zarbdor tajribasi” asosida mazkur loyihani butun mamlakatimiz bo‘ylab amalga oshirish yuzasidan aniq reja va chora-tadbirlar ishlab chiqilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Huquqiy muammolar hal bo‘lganidan so‘ng fuqarolarning yo‘li ochiladi. Ya’ni imtiyozlar, davlat ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonni raqamlashtirish orqali yana ham tezlashtirish niyatidamiz. Buning uchun xodimlarimiz maxsus ikkita dastur ishlab chiqdi. Joylarda huquqiy muammolar bevosita elektron tizimda qayd qilinadi. Har bir muammo yechilgandan so‘ng nazoratdan olinadi.

Bundan tashqari, onlayn mahalla tizimi orqali bevosita fuqarolarning o‘zlari yoki “mahalla yetiligi” tomonidan har qanday muammoni qaysidir idoraga kelmasdan turib ham tizim orqali bizga murojaat yo‘llash imkonini yaratildi. Shu tariqa biz bu muammolarni hal qilib kelyapmiz.

Shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami vakillarida aliment undirish yoki sugda da’vo kiritish bo‘yicha juda ko‘p muammo yuzaga keladi. Yuridik xizmatlar ancha qimmatligi bois, fuqarolarning imkonini cheklangan. Shu sababli bepul yuridik yordam tizimini shakllantirganmiz. “Madad” nodavlat tashkiloti hamma tumanda ochilib, yurtdoshlarimizga sudlar yoki boshqa idoralar uchun hujjatni bepul tayyorlab berish tizimi yaratildi. O‘z navbatida, muammoli masalalari bu tarzda hal etilishi yurtdoshlarimizda bugungi siyosatdan rozilik hissini paydo qiladi. Ertangi kunga ishonchni mustahkamlaydi, yurt taqdiriga daxldorlikni oshiradi.

Keyingi sakkiz yilda erishgan yutuqlarimiz, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z va e’tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab chekllovlar olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalaridagi muammolar hal qilingani va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligini konstitutsiyaviy jihatdan himoyalash zarurati mavjud edi. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelgusi avlodlarimiz ham erkin-erkin foydalanishi uchun ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo‘yish talab etildi. Bu — masalaning bir jihatli, xolos. Masalaning ikkinchi jihatli yangi tahrirdagi Konstitutsiya mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi talabi darajasida tushuntirish hamda undan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishdir.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimini oshirish maqsadida adliya organlari joylarda targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazmogda. Xususan, Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish va keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha hududlar kesimida hamda targ‘ibot guruhlari shakllantirilgan holda targ‘ibot tadbirlari dasturi ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Bugunga qadar 25 mingdan ortiq huquqiy targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi. Kurslar.huquqiyportal.uz portalida yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo‘yicha 4,5 soatga mo‘ljallangan bepul onlayn kurs joylashtirildi.

Fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan norma va standartlar ishlashini monitoring qilish hamda aholining huquqiy muammolarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida “Huquqiy mahalla” loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Avvalo, Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi Taraqqiyot mahallasida namunaviy yo‘lga qo‘yilgan ushbu loyihada huddudagi 700 dan ortiq xonadon qamrab olinib, birinchi bosqichda muammolar o‘rganildi. Keyingi jarayonlarda ularni hal etish, birlamchi huquqiy ko‘mak ko‘rsatish, metodik yordam berish, manzilli va predmetli targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish borasida uyushqoqlik



TADBIRKOR – IQTISODIYOT TAYANCHI

Uning faoliyati esa qonun himoyasida

Dilmurod QOSIMOV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil

Qulay biznes muhiti tadbirkorga qanot beradi. Faoliyati har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, huquqlari himoya qilinishi esa nafaqat uning o‘ziga, balki mamlakat iqtisodiyotiga katta naf keltiradi. Ayni shu jihatlar davlatimiz siyosatining muhim va ustuvor vazifalariga aylangan. Bu yangilangan Konstitutsiyamizda tadbirkorlikka oid kiritilgan o‘zgartirishlar “inson – jamiyat – davlat” yondashuvi asosida belgilab qo‘yilganida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ya’ni Bosh qonunimizda insonning qadr-qimmatli, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarida birinchi o‘rinda bo‘lishiga urg‘u berilgan.

O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha qator milliy institutlar samarali faoliyat yuritmogda. Inson huquqlari, bola huquqlari, tadbirkorlar huquqlari bo‘yicha ombudsmanlar, Inson huquqlari milliy markazi shular sirasidan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga hamda inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashishi qayd etilgan. Shuningdek, davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishi ham belgilab qo‘yildi. Bu orqali umume’tirof etilgan xalqaro normalar talablari ta’minlandi.

Faoliyati “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinuvchi biznes ombudsman instituti mazkur talablarning davlat organlari tomonidan so‘zsiz bajarilishini nazorat qilish, soha vakillariga munosib sharoit yaratish bo‘yicha tizimli takliflar berib borish maqsadida tashkil etilgan.

Albatta, tadbirkorlar ham munosib sharoitda faoliyat yuritsagina barqaror rivojlanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, har bir tadbirkor doimo davlat, Konstitutsiya, qonunlar himoyasida ekanini amalda his etishi kerak.

Uzoq yillar mamlakatimizda yerga nisbatan xususiy mulkchilik to‘laqonli joriy etilmagani haqiqiy mulkdorlar qatlami yetarlicha



shakllanmasligi, yerning tovar sifatida bozor muomalasiga kiritilmasligi, xorijiy investorlarning milliy iqtisodiyotimizga nisbatan ishonchi pasayishiga olib keldi. Ko‘chmas mulk obyektlari buzilib, yer uchastchalarning davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi munosabati bilan yetkazilgan zararlarni qoplashning amaldagi mexanizmdagi kamchiliklar tadbirkorlik subyektlarining davlatga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazdi.

2021-2023-yillarda biznes ombudsman devoniga mulk huquqiga oid 538 ta murojaat kelib tushgan bo‘lsa, ularning orasida hatto o‘n besh yillab mulkiy huquqi hal etilmaganlari ham mavjudligi mana shunday salbiy holatlar ta’siridir.



ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk ham bo‘lishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur normaga o‘xshash normalar milliy qonunchilikda ham uchraydi. Xususan, Fuqarolik kodeksida “O‘zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va omnaviy mulk shakllarida bo‘lishi”. Yer kodeksida esa yuridik shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq mulk, doimiy foydalanish va ijara huquqi asosida, jismoniy shaxslar mulk va ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Xususiy mulk shaxsga o‘ziga tegishli mol-mulkdan o‘z manfaatini yo‘lida mutlaq darajada egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqini beradi. Shu nuqtayi nazaridan, yerga nisbatan xususiy mulkning amal qilishi iqtisodiyotimizga bozor tamoyillarini joriy etishga, xususiy iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishga va mol-mulkni oqilona boshqarish orqali daromadlarni ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Ushbu norma umume’tirof etilgan xalqaro hujjatlarda ham mavjud. Masalan, Inson huquqlari umumijahon deklaratsiyasi, Fuqarolik

va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlar xususiy mulk huquqini asosiy huquq sifatida tan oladi.

Yangi Konstitutsiyamizda bunday ilg‘or norma kiritilgan mamlakatimizda mulkdorlar ko‘payishiga, ularning manfaatlariga qaratilgan huquqiy asos yaratilishiga, yer uchastkalaridan foydalanish bo‘yicha iqtisodiy samaradorlik oshishiga hamda iqtisodiyotimizning investitsion jizbadorligi yuksalishiga olib keladi.

Yangi normalar Konstitutsiyada mustahkamlangandan so‘ng tadbirkorlikka oid qonunchilik hujjatlar ham unga to‘la mos kelishi nuqtayi nazaridan to‘liq qayta ko‘rib chiqilmogda.

Biznes va qulay investitsiyaviy muhiti yaxshilash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ular faoliyatiga erkinlik berish, xususiy mulk daxlisizligini ta’minlashda konstitutsiyaviy islohotlarning o‘rni juda ahamiyatli. Qolaversa, yangi Konstitutsiya ishlab chiqilishida tadbirkorlar bilan bamaslahat ish ko‘rilgani ham ularning kafolati faoliyati muhim ekanini anglatadi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Jahon banki tomonidan yangi O'zbekistonning Yevropa va Markaziy Osiyodagi iqtisodiyati, davlati rivojlanayotgan uch mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etilgani buning yorqin dalilidir.

Xalqimiz qo'liga kiritayotgan bunday ulkan muvaffaqiyatlarning zamirida Bosh qonunimizda mustahkamlab qo'yilgan davlat suvereniteti, insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyat, inson qadriini muttasil yuksaltirish, ijtimoiy adolatli kab e'guz e'guz g'oyalarning amalidagi tantanasi mujassamdirl.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi. Davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasi.

www.yuz.uz[yuz.uznews](https://www.facebook.com/yuz.uznews)[yuz_official](https://www.telegram.me/yuz_official)[yuz.uz_news](https://www.instagram.com/yuz.uz_news)[yuz](https://www.youtube.com/yuz)

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida “Inson huquqlari uyi” ochildi. Milliy, xorijiy va xalqaro ekspertlar bu haqda o‘z taassurotlarini bildirmoqda. Quyida ularning fikrlari bilan tanishishingiz mumkin.

Sabina MAHL,
BMTning O‘zbekistondagi doimiy
muvofiqlashtiruvchisi:



— Barchangizni BMT agentliklari oilasi tomonidan judayam muhim tadbir — “Inson huquqlari uyi”ning ochilishi bilan qutlashdan bag‘oyat xursandmiz. Endi yangi axborot resurs markazi va kutubxona boshqa viloyatlardagi kutubxonalar kabi inson huquqlariga oid muhim axborot va ma’lumotlar manbasi sifatida jamoatchilikka xizmat qilishi bizga mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Ushbu tadbir izma-iz kelayotgan bayramlar, ya’ni 8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 10-dekabr — Xalqaro inson huquqlari kuni arafasida o‘tayotganidan foydalanib, sizlarni ana shu ayyomlar bilan ham tabriklayman. Barchangizga qimmatli vaqtigingizni ajratib, ushbu tadbirda ishtirok etganingiz uchun minnatdorlik bildiraman.

Matteo MEKACHCHI,

Xalqaro ekspert, YXHT Demokratlashtirish
va inson huquqlari bo‘yicha byurosining
sobiq direktori:

— Men uchun “Inson huquqlari uyi”ning ochilishi tadbirida ishtirok etish juda katta imkoniyat, bundan juda minnatdorman. Biz inson huquqlari qanaqadir nazariy tushuncha emas, balki ushbu huquqlarni hayotga, amaliyotga tatbiq etish muhimligi to‘g‘risida fikr yuritgani uchun ham yig‘ilganmiz. Ya’ni insonning hayotga bo‘lgan huquqi, o‘z fikrlarini ifodalash, o‘z diniga e’tiqod qilish va shu kabi boshqa huquqlarining barchasi nafaqat qonunchilik hujjatlarida aks etishi, balki kundalik hayotimizda ham bajarilishi lozim.

Fursatdan foydalanib, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi jamoasini, barchangizni ushbu ma’rifat maskani ochilishi bilan tabriklayman. Chunki bu maskan inson huquqlariga oid bilimlarni tarqatish uchun jamoatchilikka ochiq ilmiy tadqiqot va o‘quv markaziga aylanoqda.

Bugungi zamonaviy dunyoda kutubxonalar ham o‘zgarib, tobora rivojlanib bormoqda. Ayni paytda kutubxonalar xuddi olis tarixdagi kabi qalbimizga malhamlik xususiyatini ham saqlab qolmoqda.

Tadbir ishtirokchilari orasida ko‘plab yoshlarni ko‘rib quvondim, ularga qarab o‘z yoshligimni,



inson huquqlari sohasidagi lavozimlarda yuqorilashim avvalida NNTda ishlagan paytlarimni esladim. Aytmogchimanki, inson huquqlari sohasidagi yutuqlar, albatta, bilim va ma’rifatdan boshlanadi. Tegishli bilimlarga ega bo‘lib, so‘ng uni amaliyotda ishlatish uchun har doim astoydil intilish va izlanish lozim.

So‘zimga yaqinida inson huquqlari qanaqadir yakuniy marra emas, aksincha, izchil davom etadigan uzluksiz jarayon ekanini ta’kidlamogchimam. Dunyoda hech qaysi mamlakat biz inson huquqlari bo‘yicha vazifalarimizni bajarib qo‘ydik deb xotirjam bo‘la olmaydi. Aksincha, inson huquqlarini rivojlantirish sohasi muntazam va to‘xtovsiz tarzda mukammallik sari intilish hamda astoydil sa’y-harakatda bo‘lishni talab qiladi.

Yuy SZYUN,

Xitoy Xalq Respublikasining
O‘zbekiston Respublikasidagi
Favqulodda va muxtor elchisi:



— Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida “Inson huquqlari uyi” ochilishi munosabati bilan Xitoy elchixonasi nomidan samimi tabriklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz! O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bunday degan edi: “Ko‘pchilik demokratiya tushunchasini turlicha talqin qiladi. Men uchun demokratiya — bu xalqimizning tinchligi, farovonligi va te’g huquqliligidir”. Prezidentingiz boshchiligidagi O‘zbekiston xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yib, inson huquqlarini himoya qilishga katta e’tibor qaratmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyangizga inson huquqlarini himoya qilishga oid muhim qoidalar kiritildi, inson huquqlari bo‘yicha birinchi milliy strategiya ishlab chiqildi. Mamlakatingizda xalqning turmush darajasi sezilarli darajada yuksaldi, ayollar, bolalar, imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ijobiy natijalarga erishildi. Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat tizimini takomillashtirish izchil davom ettirilmoqda.

Alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston vakili joriy yilda BMTning Inson huquqlari qo‘mitasi tarkibiga saylandi. Bu, shubhasiz, O‘zbekistonning mazkur sohadagi yutuqlari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e’tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Biz O‘zbekiston tomoni bilan birgalikda butun insoniyatning tinchlik, taraqqiyot, adolat, tenglik, demokratiya va erkinlik kabi umumiy qadriyatlariga amal qilgan holda, shuningdek, o‘zaro tajriba almashish va bir-biridan o‘rganishni kuchaytirish orqali butun dunyoda inson huquqlari sohasining sog‘lom rivojlanishiga birgalikda hissa qo‘shishga tayyormiz.

“INSON HUQUQLARI UYI” fuqarolar huquqlarini amaliy himoya qilishda samarali institut

Eldor TULYAKOV,

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi direktori:

— “Inson huquqlari uyi”ning ochilishi O‘zbekistonning nafaqat inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi sa’y-harakatlari, balki yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosidagi maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi muhim qadam hamdir. Ushbu ma’rifat maskani inson huquqlari sohasidagi faoliyatimizni yangi bosqichga ko‘taradi, degan umiddaman.

Inson huquqlari har qanday jamiyatning barqarorligi, tinchligi va adolatli rivojlanishining asosiy tamoyilidir. Huquq va erkinliklar himoyasi davlat siyosatining markaziy yo‘nalishi bo‘lib, inson qadriini yuksaltirish “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan islohotlarimiz markazida turibdi. Bu tamoyil nafaqat fuqarolarning shaxsiy manfaatlarini himoya qiladi, balki jamiyatda o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlik muhitini ham yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, “Inson huquqlari uyi” nafaqat huquqlarni himoya qilishga qaratilgan, balki inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tadqiqotlar uchun zamonaviy maydon sifatida xizmat qiladi, degan fikrdamiz. Shuningdek, bu yerda innovatsion yondashuvlar joriy etilib, inson huquqlari sohasidagi yangi tashabbuslar rivojlantirilishiga ham ishonamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashning mustahkam huquqiy asosini yaratdi. Unda, jumladan, inson qadri eng oliy qadriyat sifatida mustahkamlandi. Har bir fuqaroning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, mehnat qilish kabi huquqlari kafolatlandi. Davlat organlari faoliyatida

Har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning rozilgisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas. Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.

O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining
21-moddasidan.

Asadjon XO‘JAYEV,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
direktori:

— Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi o‘zining asosiy vazifalari qatorida inson huquqlarini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning solnomasini yuritish, fuqarolar va ilmiy tadqiqotchilarga inson huquqlari bo‘yicha tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish masalalari bo‘yicha ham mas’ul hisoblanadi.

Shu ma’noda, Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan bunyod etilgan “Inson huquqlari uyi”ning ochilishi mamlakatimiz



inson huquqlarini himoya qilish tizimi taraqqiyoti yo‘lida g‘oyat muhim qadam bo‘ldi.

Bilyana MILOSHEVICH,
Xalqaro Qizil xoch
qo‘mitasining Markaziy
Osiyodagi mintaqaviy
delegatsiyasi rahbari:

— “Inson huquqlari uyi” ochilishida ishtirok etish menga sharaif va mamnuniyat bag‘ishlaydi. Xalqaro Qizil xoch qo‘mitasi butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham xalqaro gumanitar huquqni targ‘ib etish va amalga oshirish bo‘yicha hukumat, shuningdek, davlat va nodavlat institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga intiladi.

Shunga ko‘ra, Xalqaro Qizil xoch qo‘mitasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy delegatsiyasi inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan 20 yillik samarali hamkorlik tajribasiga ega. O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi yetakchi tashkilot hisoblanuvchi Milliy markaz bilan Xalqaro Qizil xoch qo‘mitasining yillar davomida olib borgan muloqoti va birgalikdagi faoliyatini yuksak qadrlaymiz.

Hamkorlikdagi faoliyatimiz asosiy xalqaro gumanitar-huquqiy shartnomalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish, shuningdek, xalqaro gumanitar huquq bo‘yicha o‘quv materiallarini ishlab chiqish kabi sohalarni o‘z ichiga oladi.

Fursatdan foydalanib shuni ma’lum qilmoqchimanki, Xalqaro Qizil xoch qo‘mitasi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz hamda Shveysariyaning O‘zbekistondagi elchixonasi ikki haftadan so‘ng aynan ushbu dargohda Jeneva konvensiyalari qabul qilinganining 75 yilligi munosabati bilan ayni xalqaro hujjatlarining lotin imlosiga asoslangan o‘zbek alifbosida nashr etilgan to‘plami taqdimotini o‘zaro hamkorlikda o‘tkazishni rejalashtirgan.

Ishonamizki, ushbu ma’rifat maskani xalqaro gumanitar huquq hamda xalqaro huquqning boshqa yo‘nalishlarini targ‘ib etish bo‘yicha istiqboldagi hamkorligimizga muhim hissa qo‘shadi.



Mahsuda DO‘SMATOVA,
Toshkent viloyat sudining
iqtisodiy ishlar bo‘yicha
sudyasi

Xalqimiz xohish-irodasi ifodasi sifatida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqchilligi, jamiyatdagi muhim muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish hamda bevosita inson manfaatlariga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Qonunchilikda har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan. Shaxsning buzilgan huquq va erkinliklarini sud orqali tiklash va sud qarorlarini konstitutsiyaviy normalar bilan asoslantirish, birinchi navbatda, Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini oshirish va fuqarolarning sudlarga ishonchini yanada kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 55-moddasida har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish, buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlangan.

Sud davlat hokimiyatining alohida va mustaqil tarmog‘i sifatida sud hujjatlarida Konstitutsiyani bevosita qo‘llash orqali uni harakatga keltiruvchi, konstitutsiyaviy huquq-tartibotni mustahkamlovchi yagona va oliy organidir. Shunday ekan, sud hujjatlarida Bosh qonunimizda kafolatlangan inson huquqlariga oid normalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilishi, sud qarorlarini Konstitutsiya bilan asoslash amaliyotiga o‘tish aholining huquqiy ongi va tafakkurini yuksaltirish bilan birga, jamiyatda Konstitutsiyaning ahamiyatini oshiradi.

Asosiy qonunimizning 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” deb yozilgan. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi deganda davlat

organlari, ularning mansabdor shaxslari, jumladan, sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini huquqni qo‘llash amaliyotida bevosita qo‘llagan holda qarorlar qabul qilish, fuqarolarning Konstitutsiya normalaridan bevosita foydalanishi va rioya etilishini ta’minlash ko‘zda tutiladi.

Konstitutsiyaning normalarini sudlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish uchun 2023-yil 23-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Zero, sudlar tomonidan konstitutsiyaviy normalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi orqali inson huquqlariga oid kafolatlarining to‘laqonli ta’minlanishiga erishiladi.

Konstitutsiyaning 20-moddasida insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, bu jihat davlat, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar faoliyatining mazmun-mohiyatini tashkil etishi lozimligi belgilangan.



Birgina Toshkent viloyat sudlari misolida tahlil qilsak, joriy yil davomida sudlar tomonidan sud hujjatlarini qabul qilishda Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, iqtisodiy sudlar tomonidan xususiy mulk bilan bog‘liq nizolar, yerga oid huquqiy munosabatlarni, investitsiyalar va raqobatga oid ishlar, atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi nizolar, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratga bo‘lgan mulk huquqini e’tirof etish, xususiy mulk sifatida egalik qilish va undan foydalanish faktini aniqlash bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda Konstitutsiya normalariga murojaat qilinmoqda.

Umuman, yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Har bir fuqaroning kundalik hayotida, o‘z haq-huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda Konstitutsiyamiz eng yuqori darajada e’tirof etilishi lozim. Konstitutsiyadagi normalar jamiyatdagi muhim muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solsa, inson manfaatlariga xizmat qilsagina, uning yuridik kuchi, ta’siri seziladi va e’tirof etiladi. Konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim maqsadlaridan biri ham xalqning Konstitutsiyaga ishonchini kuchaytirish hamda konstitutsiyaviy yo‘l bilan odamlarning muammolarini hal etishdir.

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.
O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir.
Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda
O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.
Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasi.



ISBOTLANMAGAN AYB — ISBOTLANGAN AYBSIZLIKKA TENG



Mirzayusup RUSTAMBOYEV,
Jamoat xavfsizligi
universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori,
professor

Sudlarning konstitutsiyaviy normalarni to‘g‘ri-ridan-to‘g‘ri va bir xil qo‘llashi bo‘yicha Oliy sud plenumi qarori qabul qilindi. 2023-yil 1-maydan joriy yilning 1-noyabriga qadar sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini to‘g‘ri-ridan-to‘g‘ri qo‘llagan holda 182 ming 219 ta ish ko‘rib chiqildi. Shundan 34 ming 626 tasi jinoyat, 63 ming 328 tasi ma‘muriy huquqbuzarlik, 34 ming 429 tasi fuqarolik, 39 ming 448 tasi iqtisodiy va 10 ming 388 tasi ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma‘muriy ishlaridir. O‘tgan bir yilda esa faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan Konstitutsiyani to‘g‘ri-ridan-to‘g‘ri qo‘llab chiqarilgan sud qarorlari 749 tani tashkil etgan.

Ulug‘ faylasuf Aflotunning “...qonun yaratuvchi uch narsani — mohiyat, sifat va xislatni yaxshi bilgan taqdiridagina o‘sha qonun eng yaxshi qonun bo‘ladi. Chinakam qonun mamlakatdagi barcha tabaqa va avlodlarga, barcha viloyat aholisiga baxt-saodat, shod-xurralik keltirishini hisobga oladi”, degan so‘zlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz haqida aytilgandek.

Inson huquqlarining chinakam himoyachisi

Konstitutsiyada yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekan va qonun bilan muhofaza qilinishi, o‘lim jazosi taqiqlanishi konstitutsiyaviy darajada belgilab qo‘yildi.

Zero, insonga hayotni Yaratgan ato etadi va uni olish ham o‘zining izmida. Shu jihatdan yashash huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqidir. O‘zbekistonda 2008-yildan barcha jinoyat uchun o‘lim jazosi bekor qilingan bo‘lsa-da, Konstitutsiya darajasida emas, balki jinoyat qonunchiligida o‘z aksini topgan edi. O‘lim jazosini taqiqlashning konstitutsiyaviy darajada belgilanishi esa insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlatdi.

Ayrim davlatlar o‘z tajribasida o‘lim jazosini qonunlar bilan bekor qilsa-da, Konstitutsiyasida bo‘lmagan bois, uni jazo sifatida qayta tiklash holatlari ham kuzatilgan. Shuningdek, sudlar ham xatoga yo‘l qo‘yishi xavfini inkor etib bo‘lmaydi. O‘lim jazosi tayinlangan shaxsda sud kelgusida oqlov hukmi chiqaradigan bo‘lsa, nohaq ayblangan inson hayotini ortga qaytarishning hech qanday imkoni yo‘q. Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiyamizga kiritilgan mazkur qoida O‘zbekistonning qat’iy pozitsiyasi mamlakatimizda inson hayoti va qadri yuqori darajada himoya qilinishini yana bir bor tasdiqladi.

“Xabeas korpus” instituti normalari va “Miranda qoidasi”

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, bunga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishiga doir norma kiritilgani ham inson huquqlarining ishonchli himoyasi yo‘lidagi navbatdagi muhim qadam bo‘ldi.

O‘z navbatida, shaxs sudning qarorisiz qir q sakkkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ushlab turilgan paytdan e‘tiboran qir q sakkkiz soat o‘tguniga qadar sudga ushlab turishning qonuniyligi va asosligi to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun olib borilishi kerakligi, agar ushlab turishning qonuniyligi va asosligi sudga isbotlanmasa, darhol ozod qilinishi kerakligi haqidagi norma o‘z aksini topdi.

Bu agar sud tomonidan shaxsni hibsga olish yoki unga nisbatan boshqacha turdagi ozodlikni

Yangi O‘zbekistondagi tizimli islohotlarning hayotiy ifodasi, mustahkam huquqiy poydevori bo‘lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarining amaliy ro‘yobini ko‘pchilik allaqachon o‘z faoliyatida, mehnat jamoasi va oilaviy hayotida his etib ulgurdi. Bir yildan ko‘proq vaqt davomida xalqimiz amalda Asosiy qonunimizning oliy yuridik kuchga egaligi va to‘g‘ri-ridan-to‘g‘ri amal qilishining bevosita shohidi bo‘ldi.

cheklashga oid qaror qabul qilinmasa, shaxs darhol ozod qilinishi zarurligini anglatadi. Eng muhimi, ushbu norma insonning fundamental huquqlari sud orqali himoya qilinishi va shaxs erkinligi hamda daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolati sifatida xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi, ya‘ni “**Miranda qoidasi**” amaliyotga kiritilgani inson huquqlarini kafolatlash yo‘lidagi navbatdagi ijobiy o‘zgarish bo‘ldi.

Protsessual ushlab vaqtda inson og‘ir ruhiy holatga tushadi va huquqiy yordamga muhtoj bo‘ladi. Chunki u bunday murakkab vaziyatda **jinoyatda aybdor yoki aybsizligini isbotlash majburiyati unga emas, aksincha, to‘liq tergov organlariga yuklatilganini** anglay olmaydi. Uzoq yillar mobaynida tergov organlari tomonidan kimdir qo‘lga olinganida u nima uchun ushlangani aytilmasligi yuzasidan aholidan ko‘plab shikoyatlar tushgan. Natijada fuqarolarning huquqlari qo‘lga olingan vaqtning o‘zidayoq xavf ostida qolgan. Ming afsuski, fuqarolar **o‘z huquqlarini yaxshi bilmagani va hech kim ularga buni aniq va batafsil tushuntirmagani** uchun tergov jarayonida qonunga diz holatlar kuzatilgan. Ushbu salbiy holatlarning oldini olish maqsadida rivojlangan davlatlarning konstitutsiya va qonunlarida aks etgan “**Miranda qoidasi**” O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgani amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi.



Bu borada birgina 2023-yilda prokuratura organlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovda qonunchilikka rioya etilishini ta‘minlash maqsadida surishtiruv va tergov organlarining 73 ming 718 shaxsga nisbatan 59 ming 899 ta jinoyat ishi o‘rganilib, tegishli sudlarga yuborilgan bo‘lsa, qonunga diz bo‘lgan 30 ming 107 ta protsessual qaror bekor qilingan hamda zarur protsessual harakatlarni o‘tkazish haqida 54 ming 338 ta yozma ko‘rsatma berilgan.

“Miranda qoidasi”ga binoan ushlangan shaxs sukut saqlash, so‘roq jarayonida advokati ishtirokini talab qilish va boshqa huquqlarga egaligi sodda tilda shaxsga ilk soniyalaridayoq tushuntiriladi. Ya‘ni Konstitutsiyada jinoyi ta‘qibga olingan shaxslarni davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning o‘zboshimchaligidan himoyalashning deyarli barcha usuli aks etdi.

Aybdorlikka oid shubhalar kimning foydasiga xizmat qiladi?

Konstitutsiyamizning 28-moddasida aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi belgilangan.

Mazkur yangi qoidaning ahamiyati nimada? Bu norma aybsizlik prezumpsiyasi prinsipining muhim kafolatidir. Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur qoidaga ko‘ra, jinoyat ishi bo‘yicha har qanday dalillarga nisbatan shubha paydo bo‘lsa, bunday shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi foydasiga hal qilinishi zarur.

Nima uchun shaxs huquqining mazkur kafolati muhim? Shaxsning aybdorligiga oid har qanday shubhaga tayanib, ayblash uchun yetarli

bo‘lmagan dalillar asosida insonni javobgarlikka tortish mumkin emas. Bordi-yu, tergovda ayb e‘lon qilinsa ham bunday vaziyatda sudda aybini tasdiqlovchi dalillar yetarli emasligi tufayli unga nisbatan oqlov hukmi chiqariladi. Ya‘ni “isbotlanmagan ayb — isbotlangan aybsizlikka teng” degan xalqaro standart amal qiladi.

Mamlakatimizda afv instituti tobora takomillashib, gumanistik siyosatning amaliy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqilligimizning 33 yilligi arafasida Prezident farmoni bilan jazo muddatini o‘tayotgan va qilishiga chin ko‘ngilidan pushaymon bo‘lgan 522 shaxs afv etilgani alohida e‘tirofga sazovor.

Bundan tashqari, sud-huquq tizimidagi islohotlar va yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarining amaliyotga joriy etilayotgani oqlov hukmlari e‘lon qilinayotganida ham ko‘zga tashlanmoqda. Ahamiyatli jihat, mazkur islohot va tadqiqotlar yaqin tariximizdagi qatag‘on yillarida nohaq ayblanganlar uchun ham amalga oshirilyapti. Xususan joriy yilda Oliy sud jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan 1930-1938-yillarda sud hukmi bilan nohaq jazoga tortilgan 198 shaxsga doir 11 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqildi va ularga oqlov e‘lon qilindi. Shuningdek, mazkur moddada hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilangan.

Xo‘sh, jinoyat ishi bo‘yicha shaxs o‘ziga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi oddiy insonga nima beradi? Avvalo, bu kafolat shaxsga nisbatan

gumon yoki ayblov ko‘rib chiqilayotganda tergov organlari tomonidan unga har qanday bosim o‘tkazishdan himoyalaydi. Shaxsning o‘z aybiga iqror bo‘lishiga majburlanishi holatlarining oldini oladi hamda jinoyi ta‘qib ostidagi shaxsning yaqinlaridan unga qarshi guvohlik berish majburiyatini emas, faqat va faqat ixtiyoriy bo‘lishi kerakligini kafolatlaydi.

Insonlar taqdiriga daxldor yangi normalar

Konstitutsiyaga inson huquqlari va qadrini himoya qiluvchi, uzoq yillar davomida aholini qiyab kelgan, minglab insonlar taqdiriga daxldor bo‘lgan masalaga doir yangi bir normaning kiritilishi ham chinakam huquqiy kafolat bo‘ldi. Ya‘ni endi shaxsning sudlangani va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan ham mazkur normani Konstitutsiyada qat’iy yozib qo‘yish zarurligi alohida ta‘kidlangandi.

Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur norma asosida davlatimiz rahbari tomonidan 2024-yil 20-sentabrda imzolangan qonun bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, “Davlat fuqarolik xizmati o‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasi “**Qarindoshining sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish va uni o‘tash chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas**” degan alohida qism bilan to‘ldirildi.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish yangi O‘zbekistonnii barpo etish siyosatini qat’iy davom ettirish yo‘lidagi mustahkam huquqiy qo‘rg‘on bo‘ldi va islohotlarimizning ortga qaytmaydigan muqarrar tus olishida kafolati hujiat vazifasini bajarmogda.

O‘tgan yillar mobaynida yangi O‘zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida shiddatli islohotlar amalga oshirildi. 2017-2024-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini bevosita qo‘llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan 64 ta nativativ-huquqiy hujiat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur huquqiy va institutsional baza yaratildi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritilib, “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlandi.



TENG HUQUQLILIKGA DAXL QILOLMAGAN “TOSHKENT PROPISKASI” VA “YASHIL BO‘LMAGAN PASPORT”

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada milliy qonunchiligimizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berildi. Ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Bularning barchasi mustaqil va erkin fuqarolarning qonun tomonidan mustahkamlangan fuqarolik huquqi evaziga amalga oshdi.

Bu gaplar shunchaki rasmiyatchilik uchun emas, biz tizimli ravishda aniq belgilangan yuzlab samarali rejalarning amalga oshganlaridan ba‘zilarini sanab o‘tishni lozim topdik, xolos. Uzoq yillardan beri fuqarolik huquqiga oid to‘planib qolgan ko‘plab muammolar huquqiy islohotlar bilan o‘z yechimini topganini tan olishimiz kerak.

Birgina “Toshkent propiskasi” so‘zini eslaylik. Yetti-sakkiz yil oldin bu so‘z huquqlarimiz notengligi isboti sifatida go‘yo yana yuz yil yashaydigandek quloqlarimiz ostida to‘xtovsiz jaranglardir, minglab odamlar tizim og‘irlashsa og‘irlashdiki, aslo fuqaro uchun yengillik bo‘lmaydi, deb hafsalasiz qo‘l silikiganda davlatimiz rahbarining qat’iy irodasi evaziga biz taxmin qilishga cho‘chigan, ammo yillar mobaynida intiqib kutgan qaror qabul qilindi — 2020-yil 1-sentabrdan eski yara kabi beto‘xtov qiyab kelgan propiska tizimi bekor bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida esa bu so‘zni boshqa qaytib eshitmaydigan bo‘ldik, xuddi yomon tushdek barchasi unutildi.

“O‘zimni begonaday his qilmay qo‘yganimdan baxtiyorman!”

— Namanganda tug‘ilganman. Xotinim toshkentlik edi. Hali propiska bo‘yicha o‘zgarish bo‘lmagan paytlar. Shaharda emas, Toshkent viloyatida yashardik, chunki ishimga yaqin edi. Boshqa viloyatdan kelgan bo‘lsam-da, qarindoshlarimning aksariyati shu yerda istiqomat qilardi. Doimiy ro‘yxatga qo‘yishni iltimos qilib yozmagan tashkilotimiz, yalimgan odamimiz qolmagandi. Bir safar tegishli tashkilotdan kelgan xatga ko‘ra, men ro‘yxatga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan toifaga kimasligimni o‘qib, topilgan bahonadan kulgim qistagan edi, — deydi Xurshid Sherमतatov. — Qaysi toifadagi fuqaroligimdan qat’i nazar, men ham shu xalqning farzandiman, bir qismiman, sen kabiman deb javob yozgim kelgandi o‘shanda.

Keyinchalik ba‘zi sabablar bilan Chilonzor tumaniga, xotinimning uyiga ko‘chib o‘tdik. Juda qiyналganmiz. Xotinim homilador holda mendan ko‘p harakat qildi. Foydasi bo‘lmadi, ishga joylashib olishim uchun menga hatto vaqtinchalik propiska ham berishmadi, aytolimga hakim rozi bo‘lsagina, eringizni ro‘yxatga olishimni mumkin deysingan. Ishonasizmi, odamni halol og‘ir mehnatdan ko‘ra, mana shunaqa mujmal



hujiatbozlik, kimningdir eshigi oldida navbat kutish, unga mulozamat ko‘rsatish, undan so‘ng yigimata joyda xuddi shu alfozda “ter to‘kish” ko‘proq tinkasini quritir ekan. O‘sha paytlar odamlar orasida qiziq gaplar tarqalib yurardi: “Propiskang bo‘lishi uchun Toshkentda ishlagan bo‘lishing kerak, Toshkentda ishlash uchun esa propiskang bo‘lishi kerak”. Paradoksni qarang...

Ammo mana, Prezidentimiz sa‘y-harakati, oqilona qarori bilan bu tizim tugatildi. Haligacha xursandman, go‘yoki huquqim bir bosh ko‘tarilgandek bo‘lgan. Agar fuqarolik jihatdan o‘zingizni birovdan kam bilmasangiz, birlamchi ehtiyojlar qondirilgandek xotirjam his qilishni boshlar ekansiz. Halovat topganimdan so‘ng ishimda unum bo‘ldi, uyimga baraka qaytdi. Doimiy ro‘yxatdan o‘tish kabi mayda maqsadlar o‘rnini davlat rivojiga hissa qo‘shuvchi rejarlar egalladi, fikran o‘sdim, umuman, bu islohot davlat uchun ham, xalq uchun ham birdek foydali bo‘ldi deb o‘ylayman.

“O‘zbekiston fuqarosi” degan maqom sharaflı ekanini allaqachon anglab yetganman”

Maqola boshida fuqarolik huquqini eslab o‘tdik. Xo‘sh, fuqarolik huquqi nima o‘zi? Qisqacha qilib aytganda, fuqarolik huquqi insonlarning shaxsiy hayotiga daxl qilmaslik, shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligini saqlash, shaxsiy qadr-qimmatni himoya qilish kabi huquqlarni o‘z ichiga oladi. Bu huquq jamiyatdagi tartib-intizomni saqlashda muhim o‘rin tutadi va insonlar o‘rtasidagi adolati munosabatlarni ta‘minlaydi. Shu tariqa fuqarolik huquqlari har bir shaxsning huquqiy himoyasini kafolatlaydi.

Va albatta, tabiiy ravishda siyosiy huquqlarga yo‘l ochadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlarga ega shaxsning huquq hamda erkinlikni hukumatlar, ijtimoiy tashkilotlar va xususiy shaxslar tomonidan buzilishidan himoya qilinadi, jamiyat va davlatning fuqarolik va siyosiy hayotida kamsitish va repressiyalarsiz ishtirok etish imkoniyati



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ta‘minlanadi. 2016-yildan oldingi fuqaroligi yo‘q odamlar esa aynan mana shu imkoniyatlardan mahrum bo‘lib, arasotda qolgandi.

2017-2021-yillar mobaynida yuz mingdan ortiq kishiga O‘zbekiston fuqaroligi berilgan bo‘lsa, 1991-2007-yilgacha atigi 482 kishi O‘zbekiston fuqaroligini olgan. 2007-yildan 2016-yil dekabrigacha esa hech kimga fuqarolik berilmagan. E‘tibor bering, 25 yil, chorak asr davomida atigi 482 kishi fuqarolikka qabul qilingan. Aytish mumkinki, shuncha yillar mobaynida fuqarolik olishga doir katta harflar bilan belgilab qo‘yilgan me‘yorlar amalga ishlamagan.

Haddan ortiq cheklavlarni deb shu zaminda tug‘ilib-o‘sgan ne-ne insonlar oraliqda qoldi. Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan so‘ng O‘zbekistonda fuqaroligi yo‘q shaxslar sifatida yashab kelayotganlarning shikoyatlarini tinglandi, bu borada mavjud muammo oliy darajada e‘tirof etildi. Sohada tom ma‘noda islohot boshlandi.

— 1991-yil 26-avgust kuni Qirg‘izistonda tavallud topganman. Otam qirg‘iz millatiga mansub bo‘lgani bilan, onam o‘zbek, 2020-yilga qadar uning ham fuqaroligi yo‘q edi, — deydi Muhammadjon Turg‘unov. — Mustaqillik e‘lon qilinishiga besh kun qolganda tug‘ilganim bir tarafdin xursand qilgan, keyinchalik, ya‘ni fuqarolik olgunimga qadar buning og‘rig‘ini to‘laligicha his qilganman. Tanishlarimning sen qirg‘izsan, o‘zbekmassan degan yarim hazil, yarim chin qilib aytgan gaplari har doim nimadir kattaroq ish qilishimga to‘sqinlik qilardi. O‘zi shunday, biz mayda, e‘tibor berishga arzimaydi deb hisoblagan sabablarimiz vaqt o‘tib, nuyiatimizda yaxshigina jarohat qoldirdi. Masalan, men ham hamma qatori vatan uchun mehnat qilishdan qochmayman, sharaf deb bilaman, halol ishlash ro‘zg‘orimni tebrataman. Lekin fuqarolik olguncha, bilasizmi, juda ko‘p imkoniyatlardan birgina shu hujiatni deb foydalanolmaganman. 2020-yildan oldin menda saylash va saylanish huquqi yo‘q edi, xorijga sayohatga borishni-ku orzu ham qilmay qo‘ygandim. Qancha tadbirkorlarni bilaman, o‘z ishini kengaytirish va salohiyatini oshirish maqsadida davlat banklaridan kredit olmoqchi bo‘lganida “fuqaroligi bo‘lmagani uchun” vaji bilan rad etilgan. Yana o‘nlab cheklavlar, taqiqlar sabab qislinib-qimtinib yashaganman.

Bir tanishimning ham fuqaroligi yo‘q edi, 2010-yillarda xususiy korxonaga ishga joylashmoqchi bo‘lganida, korxona rahbarlari hujiatini so‘ragan. Ko‘rsatgach esa “loshadinay pasport”mi deb xaxolab kulgan. Hayron bo‘lib, tushumnamdim deganda, ular poyga chopadigan otlarning ham shunga o‘xshash pasporti bo‘ladi. Senda ham shunaqa, O‘zbekistonda faqat yashash huquqiga egasan, boshqa huquqqa ega emassan deb tag‘in kamsitgan...

O‘zingizni o‘zbek deb hisoblaysiz, kelajagingizni shu yurt bilan bog‘lagansiz, bor salohiyatingizni shu yurt uchun sarflamoqchisiz, biroq buning uchun sizga yo‘l ochilmagan. Qonunan haqqingiz bor, lekin kimlarningdir tashabbusi bilan ruxsat yo‘q edi. Men-ku harqalay, bu bosqichni nisbatan yengil bosib o‘tdim deb o‘ylayman, ba‘zida imkoni bo‘la turib yaqin jargabaringan diydorini borib ko‘ra olmagalar, janozasiga yetib borolmaganlar qancha edi.

Yoshligimdan sportga qiziqqancha. Xalqaro musobaqalar payti saralab olishda men va men kabilar sababsiz ro‘yxatdan chiqib ketardik yoki umuman qo‘shilmasdik, umrini sport bilan bog‘lamoqchi bo‘lgan odam uchun bunday ajratib qo‘yishlar qattiq ta‘sir qiladi, raqib tugul, o‘zingizni-da yengolmay qolasiz. Hozir taekvando bo‘yicha murabbiy bo‘lib ishlashimning sababi ham aynan shu — sportchi bo‘lib shu yurtga aytarlik manfaatim tegmagan bo‘lsa, endi hechqursa murabbiy sifatida tegsin. Sportchilar vatanni boshqalardan ko‘ra ko‘proq yaxshi ko‘radi deb hisoblayman, buni hamma sportchilarimizning g‘alabadan keyin bergan intervyyularidan bilib olish qiyin emas, barchasi bitta gapni, bir-biridan eshitmasdan, yod olmasdan gapiradi — “Vatan va xalqim oldidagi ishonchini oqlashda davom etaman!”.

Bugun esa shukur qilaman. Prezidentimiz tashabbusi bilan O‘zbekiston fuqaroligini oldim, behisob shukur. Boshidan o‘tkazgan tabib, deysihadi. Osongina fuqarolikni olganlar men his qilib turgan tuyg‘ularni bilmasligi mumkin. Men esa bu narsaning qiziq-sovg‘ini o‘tkazdim. Shu bois, O‘zbekiston fuqarosi, degan maqom sharaflı ekanini allaqachon anglab yetganman!

O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Esse

Kunbotarni tomosha qilib o‘tirgan suhbatdoshim uzoq o‘yga toldi. Uning nigohi qontalosh bulutlarga qadalgan, chuqur nafas olishidan yelkasi ko‘tarilib tushardi. U go‘yo qushday uchishga chog‘lanar, ammo zamin oyog‘idan mahkam ushlab turganday edi. Nihoyat og‘ir sukunatni buzib favqulodda quvnoqlik bilan so‘z qotdi: “Qarang, qanday go‘zal, bundan ortiq baxt yo‘qi!”.



Boboravshan G‘OZIDDINOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Shunday deya sal narida uchib o‘tayotgan bir juft qushni ko‘rsatdi. Nimasi baxt degandek unga qaradim. Suhbatdoshim buni tez ilg‘adi va qalin qoshini chimirib, jiddiy qiyofada dedi: — Toshkentda uyim yo‘q edi. Katalakday do‘konimga har kuni soliqchi kelardi. Sanitariya idorasi bir kunda uch mahal tekshirardi. Tekshirsa ham mayli, ulushini olib, xonasida yozib kelingan qog‘ozni peshtaxtanga yopishtirib ketadi. Jahlim chiqadi, o‘zi oddiy gummaxona bo‘lsa... Mayli, dedim, tishimni-tishimga qo‘yib ishladim. Bilaman, tekshirishga keladiganlarning yarmi shitatsiz ishchilar. Yurist bo‘lmasam ham qonunni bilaman, vaqtda o‘qiganmiz. Yo‘q, faqat universitetda emas, repetitorlik qilganman. O‘zim o‘qishga kira olmaganman. Hozirgiday oson emasd, bilasiz. Aytaversa, bu ham bir doston. Keyin repetitorim menga yordam ber, yaxshi o‘zlashtirgansan, dedi. Shu-shu pul topishga qiziqib ketdim. Hozir menga qarab nimasi baxt, deypsiz, bilib turibman. Qarang, quyosh qanday go‘zal botyapti. Anavi ikki qush emin-erkin uchib yuribdi, menga o‘xshab...

— Erkinlik nima o‘zi? — deyman unga qarab.

— Gummaxonamga hadeb tekshirish kelavermasa, soliqklarimni kimningdir qo‘liga emas, shundoq telefonimdan o‘zim to‘lasam. Sanitariya idorasi xodimlari ulush olish uchun emas, rostdan ham tozalikni ko‘rishga kelsa,



— Nima o‘qiyapsan? — Huquqdan tayyorlanyapman. Mana, Konstitutsiyaning 18-moddasida yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega”... — Hamma teng bo‘lsa, sen nega ko‘chaga chiqa olmayapsan? — deyman qitmirligim tutib. Gap yana uning jarima to‘lagani haqida ketayotganini bilib, jahl qiladi: “Yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma!”.

RUHIY EHTIYOJDAN IJTIMOIY ZARURATGACHA yoxud qonunlar qanday yashaydi?

— dediyu nimadir yodiga tushganday birdan jonlandi. — Juda qiziq-da, hozir ham xuddi shu odamlar ishlaypti. Biz tomondagilar deyarli almashmadi. Lekin birdan o‘zgardi. Oldin kelib do‘q urardi, hozir salom berib, kirishga ruxsat so‘raydi. Odam yaxshi tomonga ham juda tez o‘zgarar ekan.

— Eh, sodda, — deyman unga qarab, — ular o‘zgargani yo‘q, o‘zgarishga majbur bo‘ldi. Odam yaralgandan beri jamiyatni muayyan qonunlar tartibga solib turadi. Ana shu qonun adolatlari bo‘lsa, muhimi, u barchaga birday ishlasa, jamiyat o‘nglanadi.

Unga shunday deyman-u, xayolan qariyb 3 ming yil avvalgi davrga sayohat qilaman. Amudaryo qing‘og‘i. O‘sha davrlarda insonlar tuproqni ham, suvni ham, giyohu hayvonot olamini ham muqaddas deb bilgan. Biz uchun ibtidoiy qarashga ega bu odamlar ezigulik homiysi osmonda ekani va yovuz kuchlar yer qariidan chiqishiga shubhasiz ishonadi. Ular nazdida yer yuzi — ikki kuchning kurash maydoni. Agar insonlar yo‘ldan adasha, yer osti kuchiga rag‘bat bergan bo‘ladi. Oqibatda odamzod tabiiy ofatlar, yovuz kuchlar qurshovida qoladi. Odamlar adashmasligi, ziddiyatga bormasligi uchun jamiyatning umumiy qoidalari — “Avesto” ko‘rsatmalariga amal qilishi zarur.

Hozirgi davr. Insoniyat tafakkuri, bilimidagi evrilishlar evaziga cheksiz taraqqiyot sari yuzlangan. Amudaryo sohilidagi o‘sha inson suvni hurmat qilmasa, obihayot uni tashlab ketishiga o‘zi shohid bo‘lgan. Muqaddas bitiklardagi so‘zlar bejiz emasligini biladi. U ezigulik va yovuzlik orasidagi kurash yer yuzida emas, balki inson qalbidan boshlanishini ham yaxshi his etadi. Shuning uchun yovuzlik yer ostidan unib chiqmasligi, odam o‘z nafsining hokimi bo‘la olmagach, yomonliklarga yo‘l ochishini yaxshi anglaydi. Shu bois, u barcha muqaddas bitiklar mazmun-mohiyatini o‘zida jamlashga uringan kitob — Konstitutsiyaga amal qilishi kerak.

Bunda uning yashash, ta’lim olish, e’tiqod qilish, qonunlarga hurmatda bo‘lish kabi juda

muhim huquq va majburiyatlari ko‘rsatilgan, kafolatlangan. Konstitutsiya tarixi haqida gap ketganida qadimgi Rimni eslaymiz. Huv, o‘sha zamonlarda ham qonunlar yozilgan, odamlar bunga ehtiyoj sezgan, rimliklar ilg‘or edi, deymiz. Ehtimol, shundaydir. Ammo men boshqacha fikrdaman. Nazarimda qonunlar uchun qadimgi Rim juda qisqa tarix. Uning asl manbasi ancha olisda, insoniyat yer yuzida yashay boshlagan zamonlarga to‘g‘ri keladi. Masalan, “Avesto”da yozilishicha, inson yerda hayot boshlagach, ilk xatosi sabab yerni muz qoplaydi. Shu tariqa mavjud qonun amalda o‘zini ko‘rsatadi, jazo muqarrar ekani



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

oydinlashadi. Yoki Odam Atoning farzandlari Qobil va Hobil o‘rtasidagi ziddiyat ham o‘sha ilk qonun buzilishi va jazoga misol. Demogchimakni, inson doim qonunlar orqali o‘z istaklari boshqalarning erkiga daxl qilmasligini ta’minlagan. Xo‘sh, insonda qonunlarga qanday ehtiyoj bor?

Birinchisi, ruhiy ehtiyoj. Avvalo, inson hayoti go‘dak uyusiday sokin, maroqli bo‘lishini istaydi. Buning uchun u yashaydigan jamiyatda barcha teng huquqli, hech kim boshqalarning haqiga xiyonat qilmaydigan bo‘lishi kerak. Shundagina inson o‘zi istagan orzulari sari qoqilmay odimlaydi.

Ikkinchisi, ijtimoiy ehtiyoj. Sizning orzu-istaklaringiz boshqalar tinchligiga raxna solmasligi zarur. Inson nafsiga erk bersa, manfaati uchun hech narsadan qaytmaydi. Qonunlar esa qaysidir ma’noda insonning nafsini jilovlashda muhim vosita. Shu orqali jamiyat yagona qoidalar atrofida birlashib, olg‘a siljiydi.

Inson tug‘ilishi bilan bir qancha huquqqa ega bo‘ladi. Eng birinchisi, yashash huquqi. Qadimgi bitiklardagi kabi yeru osmon oralg‘idagi barcha tiriklikni aziz bilgan kishi boshqalarning yashash huquqiga daxl qilmaydi.

Men esa shuncha vaqtdan beri biror marta qo‘lga tushmaganman. To‘g‘ri, metroga tushish joyida turgan IIB xodimi ust-boshim,

Darvoqe, tug‘ilish haqida. O‘shanda hamshiraning “Qayerda “propiska”da turadi?” degan savolidan sergak tortdim. Unga javoban savol berdim: “Qaysi asrda yashayapsiz?”.

Hamshira gap ohangimdan xato qilganini tushunib, ayolimni yetaklab ichkariga olib kirdi. Tug‘uruxxonaning oynavand eshigidan ularga qarab turar ekanman, Toshkentga ilk bor kelgan vaqtlarimni esladim. Kunora po‘rim kiyinib eshikka qarab yo‘l olganimda sinfdoshim Shuhrat savol berardi: — Yo‘l bo‘lsin? — Ko‘chaga. Zerikdim, bir aylanib kelay,

aft-angorimga qarab viloyatdan kelganimni tez fahmlagan. Bir necha bor to‘xtatib, hujjatlarimni so‘ragan. Ammo yo‘l-yo‘rig‘ini qilib “omon” qolganman. Shuning uchun Shuhrat mening ham qachondir qo‘lga tushib, panjara ortiga kirishimga shubha qilmaydi. Ayni dam bu shaharda bemalol yurish yo‘lini axtaradi. Anglaydiki, buning eng oson yo‘li universitetga o‘qishga kirish. To‘xtatgan odamga talabalik guvohnomasini ko‘rsatib, boshini g‘oz tutib o‘tib ketish. Shu maqsadda kitobga muk tushadi. Ijara uyga kelganimda qo‘lidagi kitobga chizib, belgilab o‘qiyotgan bo‘ladi.

— Nima o‘qiyapsan? — Huquqdan tayyorlanyapman. Mana, Konstitutsiyaning 18-moddasida yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega”...

— Hamma teng bo‘lsa, sen nega ko‘chaga chiqa olmayapsan? — deyman qitmirligim tutib. Gap yana uning jarima to‘lagani haqida ketayotganini bilib, jahl qiladi: “Yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma!”.

Shu voqeani eslayman-u, ayolimni o‘sha paytlarda tug‘uruxxonaga olib kelganimda nima bo‘lardi deb o‘ylayman. Sen shu yurt fuqarosisan va yana bir insonni dunyoga keltirish arafasida, jontalosh bo‘lib turibsan. Senga yordam berishga qasam ichgan oq xalati insonlar esa bir parcha qog‘ozga, shu shaharga rasman mansub yoki mansub emasligingga qarab muomala qiladi...

Hozir o‘sha hamshira ham suhbatdoshimning gummaxonasiga keladigan soliqchilar kabi o‘zgargan. Ammo xayoldan ular o‘zgarishga majbur bo‘lgan ekan, demak, istalgan vaqtda aslini ko‘rsatishi mumkin degan isyonkor o‘y o‘tadi. Ana shu yerda qonunlarga ichki ehtiyoj o‘zini ko‘rsatadi. Avval jamiyatda qonunlarga bo‘ysunish majburiyati bora-bora ko‘nikmaga aylanadi. Agar qonun hayotbaxsh, umuminsoniy mezonlarga mos bo‘lsa, uzoq yashaydi. Yo‘qsa...

Ishxonadan o‘tgan asrning 70-yillari arafasida yoshlar nashrida chop etilgan maqolani topish topshirig‘ini oldim. Shu bois, ikki kunim kutubxonada o‘tdi. Keng va yorug‘ o‘quv zalida gazetaning chang bosgan sahifalarini birma-bir varaqlayman. O‘sha davr ruhi ufurib turgan sahifalarga ko‘z tikaman. “Projektor” degan ruknda e’lon qilingan mitti maqola (aslida, chaquv xatini) o‘qib dunch qotaman. Olis viloyatdagi maktab o‘qovchisi tahririyatga yozgan xatida maktabdoshlari haqida so‘z yuritir ekan: “Falonchi ilg‘or teruvchi, u chanoqda paxta qoldirmaydi. Pistonchi esa buning aksi, paxtani toza tarmaydi. Boz ustiga fartugidagi “oq oltin”ni yerga to‘kib-sochib yuradi”, deb yozgan. Xat yaxshi terimchi bo‘lgan bola darslarni ham yaxshi o‘zlashtirib, zo‘r ishchi bo‘lib kamol topishi haqidagi olamjahon shior bilan yakunlangan. O‘sha xatni o‘qigach, o‘ylaganman: tenglikni hamma o‘zicha tushunar ekan-da. Qarang, sobiq tuzumda insonlar teng bo‘lishi kerak, deya mehnatga

majburan ommaviy olib chiqilgan. Hatto ayollar endi tug‘ilgan chaqalog‘i bilan paxta dalasiga chiqishga majbur bo‘lgan. Unchamuncha quldorlik tuzumida ham bo‘lmaydigan bolalar mehnatidan imkon qadar ko‘proq foydalanish usullari o‘ylab topilgan. So‘ng buning asoratidan uzoq vaqt qutula olmadik.

Odamlarning mol-mulki xatlanib, kolxoza o‘tkazilgani, bu umumiy boylik, deya aslida, vagonlab markazga tashilishi ham o‘sha “tenglik”ning asl qiyofasi edi. Bunday jamiyatda inson o‘z orzulari bilan yashay olmaydi. U o‘zinning orzum deb bilganlari ham aslida, kimningdir istagi bo‘lib chiqadi. Chunki odamda mavjud sharoitdan kelib chiqib oldiga maqsad qo‘yish ko‘nikmasi bor. Bu odamning ongostida shakllangan bois, orzular o‘zinniki, unga hech kim daxl qila olmaydi, deb o‘ylaydi. Ammo vaziyat o‘zgarishi bilan jamiyat ham o‘nglanib, o‘zgarib boraverishiga o‘zimiz guvohmiz.



Hozir paxta “oq oltin” emas, shunchaki iqtisodiyotning birgina tarmog‘i ekanini yaxshi bilamiz. Buning uchun ayollar go‘dagini chirqiratib dala boshiga ko‘tarib borishi shart emas. Bolalar ham faqat kitob o‘qishi kerak. Ularning mehnati kelajakni qorong‘ilikka boshlashdan boshqa narsa emas. Shu kabi tushunchalar adolatlari qonunlarga ruhiy muhtojlikni ijtimoiy ehtiyojga aylantiradi. Bu o‘ylar meni yana qadim bitliklar sari yetaklaydi. Ularning barchasida inson tabiat oldida o‘jiz ekani, atrof-muhitni himoya qilishga majburligi belgilangan.

Ha, hatto qo‘lida nayza ushlab, mamont ortida yugurib ketayotgan ovchilarning ham o‘zi amal qiladigan qonunlari bo‘lgan. Birgina misol: ular jonzotlarning ko‘payish mavsumida ov qilmagan. Bu ruhiy, ijtimoiy ehtiyojning uyg‘unlashuvi edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda birinchi marta insonning ekologik huquqlari aniq ko‘rsatildi. Bu o‘sha inson shuuridagi qadim ehtiyojning ijtimoiy hayotimizda o‘z aksini topishi edi. Shu zaylda o‘ylarim Bosh qonunimiz, undagi o‘zgarishlar sabab kafolatlangan huquqlarimiz sari ketadi. Bunday o‘ylarimni tag‘in suhbatdoshimning gapi bo‘ladi: “Bitta gummaxona atrofidagi shuncha mashmasha o‘tkazdim. Yaqin yillarda soliqchilar ishlab chiqarish seximga keldi. “Tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan ekansiz”, dedi. Gummaxonadagiday tomosha boshlandi, deb o‘yladim. Xato o‘ylabman. “Ro‘yxatdan o‘tsangiz, keshbekmi, imtiyozmi beramiz, bemalol ishlaysiz”, dedi. Hey, oshna, odamlar zamon o‘zgaraymaydi, deydi. Zamon o‘zgarar, hatto odamlarni ham o‘zgartirar ekan. Mana, o‘tgan kuni yonimdagi do‘kon egasi bozorning pattachilariga dag‘dag‘a qilyapti. Gap nimada ekanini bilmadim, qiziq ham emasd. Ammo shu do‘kondor ham o‘zgardi. Pattachini ko‘rsa, yetti bukilib salom beradigan odam-a?! Xuddi kimdir kelib, ularga sehrli tayovqchasi bilan tegib qo‘ygandagi”.

Suhbatdoshim tinmay gapirardi. Ro‘paramizda esa ertaga yanada charog‘on kun bo‘lishiga va‘da berganday quyosh ufqni tandirday qizartirgan. Bu ham bobolarning gapi: kunbotar kuysa havo ochiq bo‘ladi. Demak, bogayi juft qush bekorga vijir-vijir qilib bemalol uchib yurgani yo‘q. Ularning erkin yurishiga ikkita asos bor. Biri shu yurtdagi odamlar. Ular qonunga ko‘ra, tabiatga zarar yetkazmaydi. Ikkinchisi, tabiat qonuni. Bunisi endi boshqa guruh.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4286.
39932 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizaynerlar: Zafar Ro‘ziyev,
Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy